



## YUK AVTOMOBILING (ISUZU FVR 33G) TASHQI TEZLIK XUSUSIYATINI MATHLAB DASTURI ASOSIDA TAHLIL QILISH

Azimov Ibrohimjon Soibjon o'g'li<sup>1</sup>

NamMQI TL kafedrasi stajor o'qituvchisi, tel: +99897719444  
azimovibrohimjon0470@gmail.com,

Otabek Sidiqov Abdunosir o'g'li<sup>2</sup>

NamMQI TL kafedrasi stajor o'qituvchisi, tel: +998938000866  
otabeksiddiqov43@gmail.com,

Karimov Dilshodbek Komiljon o'g'li<sup>3</sup>

NamMQI, talaba, +998976261100 dilshodjonkarimov71@gmail.com.  
<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-100>

### ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> February 2023

Online: 17<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Tortish tezlik xarakteristikasi, tortish kuchi, burovchi moment, burchak tezlik, qarshilik kuchi, uzatishlar soni, dvigatelning quvvati.

### ABSTRACT

*Maqolada yuk avtomobiling tortish tezlik xususiyatini Mathlab dasturidagi tahlil natijalari keltirilgan. Avtomobildan foydalanishda ularning afzalliklari va mukammalliklarini baholash uchun ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchi korxonalar uchun umumiy bo'lgan mezon va o'lchagichlardan foydalaniladi.*

Avtomobilning sifatini baholashda uning dizayni yonilg'i tejamkorligi, uzoq muddatda ishlashi, tortish dinamikasi, tormoz samaradorligi ta'mirlashga qulayligi va hokazolar hisobga olinadi. Tajribaga suyangan holda va ilmiy texnik izlanishlarga asoslanib qisqa vaqt ichida yangi masalalarga ijodiy yondoshish va ularning maqbul yechimini topish ilmiy usul yordamida mahsulotning sifatini aniqlash uning xususiyatini boshqarish va jahon standartlariga mos mahsulot chiqarish mumkin [1-12].


Avtomobil konstruksiyasi to'xtovsiz takomillashmoqda. Avtomobil konstruksiyasini rivojlanish yo'naliшlarining asosiy sabablari iqtisodiy va ijtimoiy sabablardir. Iqtisodiy rivojlanish yo'naliшlari - bu yengil va yuk avtomobillarining yonilg'i tejamkorligini oshirishdir. Ijtimoiy yo'naliш esa bu avtomobillarni xavfsizligini oshirish masalasidir. Avtomobil yuqori xavfli qurilma. Shuning uchun avtomobilning faol va sust xavfsizligini takomillashtirish kerak [13-26].

### Avtomobilning tortish balansi grafigini qurish

Avtomobilning tortish qobiliyatini hisoblashdan maqsad dvigatel va transmissiyaning avtomobilga maksimal shig'ov tezlanishini, yo'llarda uning maksimal tezlik bilan harakatlanishi hamda ortiqcha qarshilikka ega bo'lgan yo'llarda bemalol yurishini ta'minlovchi parametrлarni aniqlashdir [11,12,13,16,17,19,20,21,26].


Qabul qilinuvchi parametrlar halq xo'jaligida ishlatilayotgan avtomobillar texnikaviy tavsifnomasini kritik tahlil kilish, avtomobil transportining kelajagini hisobga olib ilg'or loyihalash usullari qabul qilinishi zarur

Avtomobilning tortish balansi deb, tortish kuchining avtomobil xarakatiga qarshilik kuchlari bo'yicha taqsimlanishiga aytildi:



Oxirgi pog'onada xisoblangan  $P_\psi$  va  $P_B$  ning qiymatlarini bir-biriga qo'shib olingan natijani grafikka masshatbda qo'yamiz. Qarshilik kuchlarini yig'indisini egri chiziq bilan kesishgan nuqtasi shu berilgan yo'l shroiti uchun maksimal tezlik bo'ladi. (chizmada A nuqta).

Natijada quyidagi grafik hosil bo'ladi.



Tortish balansi grafigi

### Avtomobilning quvvat balansi.

Avtomobilning quvvat balansi tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$N_K = N_\psi + N_B + N_U \quad [\text{kVt}]$$

Bu yerda:

$N_K$  – etaklovchi g'ildirakka olib kelingan quvvat; [kVt]

$N_\psi$  -yo'lining umumiyligi qarshiligidan yengish uchun sarflangan quvvat; [kVt]


$N_a$  – Havo qarshiligidan yengish uchun sarf bo'ladigan quvvat; [kVt]

$N_u$  – inerstiya kuchini yengish uchun sarf bo'ladigan quvvat; [kVt]

**Avtomobilning yetakchi g'ildiragiga olib kelinga nquvvatni hisoblash.**

Avtomobilning yetakchi g'ildiragiga olib kelingan quvvatni quyidagicha aniqlaymiz:


$$N_K = N_e \cdot \eta_T, [\text{kVt}]$$



**Havoning qarshilik kuchini yengish uchun sarflangan quvvatni xisoblash.**

Bu quvvat quyidagicha aniqlanadi:


$$Nv = \frac{K \cdot F \cdot Va^3}{1000}, [\text{kWt}].$$



**Avtomobilning yo'l qarshiligini yengish uchun sarflangan quvvatini xisoblash.**

Yo'lning umumiy qarshiligini yengish uchun sarf bo'ladijan quvvat formulasi:

$$N_\psi = m_a \cdot g \cdot \psi \cdot V_a / 1000, [\text{kWt}]$$



### Quvvat balansi grafigini qurish


Quvvat balansi grafigini qurish uchun quyidagi ishlarni bajaramiz:

1. Masshtab tanlaymiz

2. Dvigatelning quvvatini  $(N_e)$  har bir uzatmadagi tezlikka bog'lab grafigini quramiz.  
 $(N_e = f(V_a))$

3. G'ildirakka olib kelingan quvvatni  $(N_k)$  tezlikka bog'lab uni grafigini chizamiz.  
 $(N_k = f(V_a))$

4. havo qarshiligini yengishga sarf bo'ladigan quvvatni tezlikka bog'lab grafigini chizamiz.  $(N_e = f(V_a))$



Avtomobil quvvat balansi grafigi

**Avtomobilning yonilg'i tejamkorlik xarakteristikasini xisoblash**

*Avtomobilning yonilg'i tejamkorlik xususiyati tarifi:*

**Yonilg`i tejamkorligi** deb avtomobil tomonidan turli ekspluatatsiya sharoitida bajarilgan transport ishiga sarflangan yoqilg`i miqdorini aniqlovchi xususiyatlar majmuyiga aytildi


**Avtomobilning yonilg`i tejamkorlik xususiyatini baxolovchi o`lchagich va ko`rsatgichlar**

**q<sub>n</sub> [l/100 km]** – abtomobilning 100 km masofaga sarflangan yonilg`I miqdori;

**qp [l/100τ km]** yoki **[l/100yolovchikm]** –bir birlik transport ishi uchun sarflangan yonilg`i miqdori

**GT [kg/soat]** – dvigatelning bir soat ishi davomida sarflangan yonilg`i miqdori

**g<sub>e</sub> [g/kWt soat]** – solishtirma yonilg`i sarfi



Avtomobil o`zgarmas tezlikda xarakatlanayotganda yonilg`i yo`l sarfining tezlikka bog`liq o`zgarish grafigi – **avtomobilning yonilg`I tejamkorlik xarakteristikasi deb ataladi.**

Avtomobilning yonilg`i tejamkorligini nazariyada quyidagi formuladan aniqlaymiz

$$Q_S = \frac{q_{eN} \cdot K_\omega \cdot K_U \cdot (N_\psi + N_B)}{36 \cdot V_a \cdot \rho \cdot \eta_T}, \quad \left[ \frac{l}{100km} \right]$$

Bu yerda :  $q_{eN}$  – maksimal quvvatga to`g`ri keluvchi dvigatelning solishtirma yonilg`i sarfi [ g/kWt.soat];

karbyuraatorli dvigatellar uchun 300...340 g/ kWt.soat

dizel dvigatellari uchun 200...260 g/ kWt.soat;

$K_\omega$  – tirsakli valning burchak tezligi bilan solishtirma yonilg`i sarfi orasidagi bog`lanish


$\rho$  – yonilg`ining solishtirma og`irligi

Benzin uchun - 0,75g/sm<sup>3</sup>

Dizel yoqilg`isi uchun - 0,82g/sm<sup>3</sup>

$$K_\omega = A_\omega \left( \frac{\omega_e}{\omega_N} \right)^2 + B_\omega \left( \frac{\omega_e}{\omega_N} \right) + C_\omega.$$

$A_\omega$   $B_\omega$   $C_\omega$  qiymatlar jadvaldan olinadi.  $\omega_e / \omega_N$  nisbatni 0,1, 0,2...1 gacha olib ( $\omega_e / \omega_N$  nisbatning qiymatlari 1-bo`limda xisoblangan)  $K_\omega$  ni qiymatlarini xisoblaymiz




$K_U$  – dvigatel quvvatlarini ishlatish darajasi bilan solishtirma yonilg`I sarfi orasidagi bog`lanish koeffitsienti

Dvigatel turi	$A_\omega$	$B_\omega$	$C_\omega$	$A_U$	$B_U$	$C_U$
Karbyurator	0,593	-0,85	1,257	2,91	-4,65	2,74
Dizel	0,5	0,58	1,08	1,65	-2,3	1,66


$$K_U = A_U \cdot U^2 + B_U \cdot U + C_U$$

$A_U$ ,  $B_U$ ,  $C_U$  qiymatlari jadvaldan olinadi.





Dvigatel quvvatidan foydalanish darajasi U quyidagicha aniqlanadi.

$$U = (N_\psi + N_B) / N_K$$



Xisoblangan  $K_u$ ,  $K_\omega$ ,  $N_v$  va  $V_a$  larni yuqoridagi tenglamaga qo'yib, қўйиб, соатига сарф bo'ladigan yonilg`ini berilgan yo'l qarshiligi uchun xisoblaymiz va  $Q_s$  ni tezlikka bog'lab, yonilg`I tejamkorlik tavsifi grafigini quramiz.





### Xulosa

Mazkur maqolada avtomobilning totish tezlik xususiyati, quvvati, tortish kuchini, g'ildirash radiuslarini, va yonilg'i tejamkorligini nazariy jihatdan aniqlash mumkin.

Avtomobilning burovchi momenti hamda dvigatel quvvati bilan maksimal burovchi momentga tog'ri keluvchi tirsakli valning burchak tezligi orasidagi bog'lanishni aniqlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tortish balansiga avtomobildagi har bir detal (uning g'ildiragining o'lchamidan tortib, uning old yuzasigacha), avtomobilning tezligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Biz hisoblash natijalaridan shuni oldikki avtomobilning maksimal tortish kuchi (VI-pog'onada) 5,369 kN ga teng bo'ldi. Avtomobilning umumiylar qarshiligi ya'ni havo qarshilik kuchi hamda yo'lning qarshilik kuchlari yig'indisi (VI-pog'onada) 6,078 kN ga teng bo'ldi. Va grafikda bu 2 ta egri chiziqlar kesishgan nuqta (chizmada A nuqta) avtomobilning tortish balansini bildiradi. Maksimal tezlikda tortish kuchi qarshilik kuchlariga teng bo'ladi, ya'ni tortish balansi vujudga keladi. Demak avtomobilning tezligi bu tezlikdan orta olmaydi, chunki ortiqcha tortish kuchi yo'q, hammasi sarf qilib bo'lindi. Avtomobilning quvvat balansi ham xuddi shu asnoda bajariladi...

Va shuni ham ta'kidlab o'tish joizki avtomobil o'zgarmas tezlikda harakatlanayotganda haydovchi mumkin qadar yuqori pog'onada avtomobilni boshqarsa uning yonilg'i tejamkorligi yuqoriroq bo'ladi. Biz tadqiqot qilayotgan avtomobilning maksimal tezligi 95 km/soat [26.4m/s] ga teng. Chizmadan ko'rinish turibdiki avtomobilimiz maksimal tezlikka erishganda taxminan **100 km masofani** bosib o'tish uchun **32 l** yoqilg'i sarflaydi [27,28].

### References:

- Transport vositalari tuzulishi va nazariyasi. A.A.Muhitdinov. T-2018.
- Туманбоеva Б., Нормирзаев А. Р., Тўхтабоев М. А. Dvigatellarning texnik holati va ekspluatatsion xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 7. – C. 136-142.



3. Normirzaev A. R., Tukhtabayev M. A., Mamirov U. X. Implementation of innovative ideas in digitization of the transport sector in Namangan region//Scientific and technical journal of NamIET/NamMTI ilmiy-texnika jurnali //Наманган: НамМТИ. – 2021. – Т. 6. – №. 3. – С. 127-132.
4. Мамиров У., Тухтабаев М., Раҳмонов Б. Важность развития проекта велодорожки в Намангане //Естественнонаучный журнал «Точная наука. – 2022. – Т. 5.
5. Tokhtaboyev M. A., Mekhmonaliyev I., Mamasoliyev Kh O. Establishment of intercity transportation system. Образование и наука в XXI веке //Кемерово. – 2021. – Т. 13. – №. 3. – С. 770-773.
6. Normirzayev A. et al. YO'L GIPNOZIGA OLIB KELADIGAN OMILLAR //МЕХАНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2021. – №. 4. – С. 42.
7. Мамиров У. ЎЗБЕКИСТОН ТРАНСПОРТ ТИЗМИНИ ҲОЗИРГИ КУНДАГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
8. Туманбоева Б. ТРАНСПОРТДА ИНТЕЛЕКТУАЛ ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
9. Носиров И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОЗОНATOROV ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ТОПЛИВНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ И СНИЖЕНИЯ ТОКСИЧНОСТИ ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ В АВТОМОБИЛЬНЫХ ДВИГАТЕЛЯХ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
10. Ustaboev A. N. A. Tirbandlik sabablari va uni oldini olish //NTJ NamITI. – 2020. – Т. 5. – №. 1. – С. 292-296.
11. Sh A. N., Normatov J. X. Mashinalarni texnik holatiga ta'sir etuvchi omillar. – 2017.
12. Холмирзаев А. Н. Ж., Мадрахимов А. Иссиқ иқлим шароитида автомобилларни эксплуатация қилиш. – 2018.
13. Нормирзаев А. Р., Нарзуллаев К., Полвонов А. Диагностирование состояния автомобильного двигателя аналитическим методом “Черный ящик” //Научно-технический журнал ФарПИ. – 2017. – №. 1. – С. 146-148.
14. Нормирзаев А. Р. ДИЗЕЛ ДВИГАТЕЛИНИ ГАЗ ЁНИЛФИСИГА КОНВЕРТАЦИЯ ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ //ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР ТҮПЛАМИ. – 2017. – С. 86.
15. Normirzayev A. R., Egamberdiyev B. S., Mekhmonaliyev I. Development of transportation system control system using geoformation technologies //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-1. – С. 245-247.
16. Абдукаюм Р. Н., Эшанбаев А. А., Нурматов А. Б. Движения автотранспорта на горных дорогах //Современные научные исследования и разработки. – 2018. – №. 2. – С. 12-16.
17. Нормирзаев А. Р., Нуридинов А. Д., Валиева Г. Ф. Влияние автомобильного транспорта на окружающую среду //Точная наука. – 2017. – №. 10. – С. 6-9.
18. Normirzaev A. R. Implementation of innovative ideas in digitization of the transport sector in Namangan region //Scienceweb academic papers collection. – 2021.
19. Нормирзаев Б., Нуридинов А. Д. ТАШИШ УЧУН АВТОМОБИЛЛАРНИНГ КЕРАКЛИ СОНИНИ ҲИСОБЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСЛУБЛАРИ.“ //МАШИНАСОЗЛИКДА ИННОВАЦИЯЛАР, ЭНЕРГИЯТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА РЕСУРСЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. – Т. 2. – С. 250-256.



20. Рустамов А. Н. М. Автомобилларда ёнилғи тежамкорлигини ошириш масалари.“. – 2018.
21. Рустамов И. А Нормирзаев АР Влияние автомобильного транспорта на окружающую среду и методы их снижение //Материалы конференции «ISSUES OF MODERN EDUCATION IN THE CONDITION OF GLOBALIZATION Collection international scientific conference». Россия. – 2017. – Т. 2. – С. 115-121.
22. Нормирзаев А. С. А., Устабоев А. Экологик транспортни ривожлантиришнинг афвзаликлари //Материалы конференции" Problems of improving the efficiency of work of modern production and economy of energy-resources" International Scientific and Practical Conference. – 2018. – Т. 4. – С. 146-149.
23. Нормирзаев, А. Р., Тухтабаев, М. А., & Туманбаева, Б. (2022). Анализ международной перевозки грузов и тенденции развитие отрасли.
24. Properties of a composite magnetically soft material based on coated iron powders. G.A. Govor, O.F. Demidenko, A.R. Normirzaev, M.A. Tukhtabayev. E3S Web of Conf. 365 05001 (2023). DOI: 10.1051/e3sconf/202336505001
25. Марупов, М., Юсуфхонов, З., & Нормирзаев, А. (2022). АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИНИНГ АСОСИЙ КҮРСАТГИЧЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
26. Азимов И.С., Сидиков О. А., Каюмов Н. К., Нозимов Н. А. Yuk avtomobiling (isuzu fvr 33g) tortish tezlik xususiyatini mathlab dasturi asosida tahlil qilish // Механика и технология. 2022. №Спецвыпуск 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuk-avtomobiling-isuzu-fvr-33g-tortish-tezlik-xususiyatini-mathlab-dasturi-asosida-tahlil-qilish> (дата обращения: 03.02.2023).
27. Солиев Х.М., Тухтабаев М.А., Хидиров У.С., Азимов И.С. (2022, декабрь). Модели курсовой устойчивости широкозахватного тягача. В серии конференций IOP: Науки о Земле и окружающей среде (том 1112, № 1, стр. 012033). Издательство ИОП.